



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

**ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA SHAYX SA’NON OBRAZINING
G’OYAVIY-BADIIY TALQINLARI**

Jo’rayev Habibullo Abdusalomovich

Farg’ona davlat universiteti, professor

Karimova Muxlisaxon Olimjon qizi

Farg’ona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shayx Sa’non obrazining Alisher Navoiy asaridagi badiiy-estetik xususiyatlari ochib berildi. Obrazning ramziy-falsafiy ma’nolari, g’oyaviy funksiyalari tahlil qilindi va berilgan fikrlar ilmiy va badiiy manbalardan olingan misollar vositasida izohlandi.

Kalit so’zlar: ishq, estetik tajriba, tasavvuf, tariqat, ruhiy qulash, komil inson konsepsiyasi, tavba, najot, naqshbandiya.

**ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ОБРАЗА ШЕЙХА САНЪАНА В
ПОЭМЕ АЛИШЕРА НАВОИ «ЛИСОН УТ-ТАЙР»**

Жураев Хабибullo Абдусаломович

Ферганский государственный университет, профессор

Каримова Мухлисахон Олимжон кизи

Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье раскрываются художественно-эстетические особенности образа шейха Санана в творчестве Алишера Навои. Анализируются символические и философские значения, а также идеологические функции образа, представленные идеи объясняются на примерах из научных и художественных источников.

Ключевые слова: любовь, эстетический опыт, мистицизм, порядок, духовный крах, концепция совершенного человека, покаяние, спасение, Накшбанди.

**IDEOLOGICAL AND ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE IMAGE OF SHEIKH SAN’AN
IN ALISHER NAVOI’S LISON UT-TAYR**

Habibullo Abdusalomovich Jo’rayev

Fergana State University, Professor

Karimova Muxlisaxon Olimjon qizi

Fergana State University, Master’s Student

Abstract

This article reveals the artistic and aesthetic features of the image of Sheikh Sanan in the work of Alisher Navoi. The symbolic and philosophical meanings and ideological functions of the image are analyzed, and the ideas presented are explained using examples from scientific and artistic sources.

Keywords: love, aesthetic experience, mysticism, order, spiritual collapse, concept of the perfect person, repentance, salvation, Naqshbandi.

Navoiyning “**Lison ut-tayr**” dostoni hikoyatlarining mohiyati jihatidan ketma-ketlikda joylashgani, badiiy-falsafiy mukammalligi va poetik obrazlarining rang-barangligi bilan boshqa falsafiy-agiografik asarlardan farq qiladi. Dostonda shoir yashab ijod qilgan ijtimoiy muhit hamda undagi shaxs ma’naviyati, ichki olamiga xos bo’lgan muammolar o’z aksini topgan. Ushbu ahamiyatli muammolarni shoir o’z dunyoqarashi va diniy tafakkuri asosida qayta ishlab, ularga hikoyatlar va rivoyatlar orqali yechim izlashga, ulardan olingan xulosalarni turli obrazlar yordamida asar kitobxoni uchun ibrat va tajriba sifatida taqdim etishga harakat qilgan. Asardagi hikoyatlarning birida Navoiy Shayx Sa’non obrazi va u bilan bog’liq afsonaning asl mohiyatini ochib beradi. Asarda ishq-muhabbat mavzusi yoritilgan eng go’zal hikoyat, shubhasiz, Shayx Sa’non qissasidir. Bu ishq qissasi, garchi boshqa hikoyatlar bilan bir qatorda kelsa-da, dostonning g’oyaviy mundarijasida muhim o’rin tutadi.

Adabiyotlar sharhi: Asarda Hudhud tomonidan qushlarga aytilgan hikoyatda “haqiqat burjida oftobday porlab, xaloyiqni Tangri yo’liga chorlagan, Payg’ambar singari g’oyat yagona shayx” [7] haqida gap ketadi.

“Har duokim qilsa bir g’amgin uchun,

Qo’l ochib xayli malak omin uchun.

Dudi ofatdin qarorsa olami,

Yorubon etgach duosidin dami”. [7]

Shayx shunday xususiyatlarga ega ediki, biror chorasiz insonni duo qilsa, duosi ijobatsiz qolmasdi. Agar butun olam zulmatga cho‘kib, ofat kelsa, uning duosi bilan bartaraf bo‘lardi. Shu qadar himmatli ediki, saxovati darajasi oldida Arshi a‘lo ham past turardi. Har biri Junayd Bag‘dodiy va Boyazid Bistomiyeдек to‘rt yuz muridi xizmatiga shay turardi.

“To‘rt yuz ollida ashob-u murid,

Har biri andog‘kim Junayd-u Boyazid”. [1]

Alisher Navoiy ijodiyotining yetakchi mavzusi ishqdir. Shoir dostonida dunyodagi mavjudotning sababi sifatida ishqni ko‘rsatadi. “Zamin o‘z o‘qi atrofida aylanganidek, Alisher Navoiy she‘riyati ham ishq tegrasida harakat qiladi. Navoiy ijodiyotida Ishq, Go‘zallik, Ruh, Axloq, Din, Falsafa, Erk, Abadiyat tushunchalari qamrab olingandir. Navoiy Ishq nomi bilan Insonni ulug‘lovchi ilohiy sirlarni tadqiq etadi, buyuk shoir tasvirlaridagi haqiqiy ishq kechinmalari Inson va Xudo orasidagi ruhiy yaqinlik, birlik tushunchalarini ifodalaydi” [5].

Navoiy Shayx Sa‘non obrazini yuksak ishq muhtalosi sifatida yoritadi. Shayx uchun jannat rohati-yu, do‘zax azobidan ham afzalroq narsa ishq ekanligini ta‘kidlaydi. Umri davomida to‘plagan obro‘-e‘tibori, e‘tiqodi va maslagidan mahbubasining jamolini ustun qo‘ygan shayx inson zotiga xos gunohlar va tavba orqali ilohiy najotga erishadi.

“Ishq shariati barcha dinlardan ayridir. Oshiqqlarning millati ham, mazhabi ham Allohdir”, — deydi Jaloliddin Rumiy.

Haqiqiy ishq ahliga dinning, qonun-qoidalarining, azob-u rohatning ahamiyati yo‘q; ular faqat o‘z mahbubiga intiladi, ko‘nglini uning yodi bilan sug‘oradi, ruhini yorining visoliga orzumand etadi.

Hikoyat o‘z dolzarb mavzusi, kompozitsion jihatdan mukammalligi, voqealar rivojining izchilligi, ayniqsa, tasavvufiy obrazlarning badiiy qonuniyatlar asosida barkamol yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Yirik adabiyotshunos olim Sharofiddin Sharipov o‘zining **“Lison ut-tayr” haqiqati** nomli maqolasida Shayx Sa‘non hikoyati haqida quyidagi fikrlarni ta‘kidlaydi: **“Garchi Navoiy boshqa she‘riy hikoyatlar qatori mazkur asarni ham «hikoyat» deb atasa bo‘lsa-da, lekin bu asar g‘oyaviy-tematik mazmuni, hajmi, kompozitsion tuzilishi, ayniqsa, Shayx Sa‘non obrazining har tomonlama barkamol yaratilishi bilan boshqa hikoyatlardan farq qiladi. Shu xususiyatlarini hisobga olgan holda uni bemalol «qissa» deb atash mumkin”** [4].

Alisher Navoiy Shayx Sa‘non obrazini tasavvuf adabiyotidagi murakkab va ko‘p qatlamli obraz sifatida yoritadi. Bu yangi ruhiy holat va original xususiyatlarga ega obraz orqali Navoiy **“Mantiq ut-tayr”** syujetini aynan davom ettirmay, uni yangicha ruh va xarakter bilan boyitadi. Shayx Sa‘non obrazini dostoniga g‘oyaviy asos bo‘luvchi, barcha hikoyatlarni mazmunan birlashtirib turuvchi obraz sifatida gavdalandiradi.

Shoir talqinida ushbu obraz yuqori maqomga ega diniy ulamodan ishqqa muhtalo bo‘lgan oshiq darajasiga o‘tuvchi timsoldir. Doston boshlanmasida u islom yo‘lini mahkam tutgan, shariat ahlining rahnamosi sifatida namoyon bo‘ladi va ilohiy ishq yo‘lidagi mashaqqatli sinovlar uning borlig‘ini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Shuningdek, Navoiy uni ishq sababli o‘zligini tark qilgan oshiq sifatida gavdalandiradi. Bu holat uni hayotining asl maslagiga aylangan diniy **e‘tiqodidan** voz kechishga majbur qiladi. Bu esa obrazning fano bosqichiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

“Neki amr etsa pari ruxsora yor,

Oshiqi devonag‘a ne ixtiyor”. [1]

Muhokama: Alisher Navoiy inson ko‘nglini, ruhiyatini teran anglaydigan tajribali faylasuf sifatida Shayx Sa‘non obrazining aqli va tuyg‘ularini, tashqi amallari bilan ichki kechinmalari o‘rtasidagi qarama-qarshilikni tasvirlash bilan inson ruhiyatidagi eng murakkab va chigal nuqtalarni ochib beradi.

“Dostonida o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgan hikoyatlardan biri bu Shayx Sa‘non haqidagi qissa bo‘lib, shoir uni alohida mahorat va muhabbat bilan ta‘rif qilgan. Sharq adabiyotida Shayx Sa‘non obrazi juda ko‘p munozaralarga sabab bo‘lgan. Insondagi e‘tiqod, azaliy qonun-qoidalariga qarshi chiqish, ishq va uning jamiyat qabul qila olmagan jihatlari ijtimoiy konfliktini yuzaga keltirgan. Hazrat Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Shayx Sa‘non obraziga o‘zining ichki ruhiyatini, dunyoqarashini singdirishga harakat qiladi” [3]. Shayxning ruhiy qulashi aslida ilohiy maqomining yuksalish bosqichi ekanligini shoir yuksak mahorat bilan ochib beradi. Navoiy ishq barcha chegaralar va qoidalardan ustun turuvchi bo‘ysunmas kuch ekani, insonning aqli, tashqi amallari, ijtimoiy mavqeyi bu ilohiy kuch oldida hech qanday qiymatga ega emasligi g‘oyasini ilgari surdi.

“Ishq mulkida gado-u shoh bir,

Dayr ichida rahbar-u gumroh bir.

Ishq aro dard-u balodin o'zga yo'q,
Zulmu bedodu jafodin o'zga yo'q". [1]

Haq sari yetaklovchi yo'l chigal va murakkab, hamisha ham qo'lga kiritish va topishdan iborat emasligi, ba'zan boy berish, yiqilish, gunohlarga yuz tutish orqali ham ilohiy maqsadga erishish mumkinligi asarda aks etadi. Bundan tashqari, kamolot jarayoni ruhiy sinovlar natijasida hosil bo'lishi uqtiriladi. Navoiy qissani o'z g'oyaviy konsepsiyasiga moslashtirar ekan, Attordagi syujetni ruhiy tahlil va psixologik holat asosida yoritadi. Bu esa Shayx Sa'non obrazi yanada rivojlanib, shunchaki tarixiy shaxsni yoritish emas, asrlar davomida to'plangan ruhiy tajriba timsoliga aylantirishni taqozo etadi.

Obraz orqali Navoiy tasavvuf adabiyotining murakkab va muhim jihatlarini aks ettirib, komil inson konsepsiyasiga aloqador timsolni yaratdi. Navoiyning Shayx Sa'non obrazi Attor Shayx Sa'nonidan komilroq, komillik xislatlarining ko'p qirralariga mos keluvchi shaxs sifatida berilgan. Agar Attorda muridlarning eng yuqori sifati — sohibkamollik bilan ifodalangan bo'lsa, Navoiyda eng oddiy muridning darajasi Junayd va Boyazid shaxsiyatiga tenglashtirilmoqdaki, diqqatga loyiqdir [2]. Navoiydagi komillik tushunchasi davr talabiga ko'ra Attordan farq qilardi. Shoir naqshbandiya tariqatida bo'lgani bois, uning asarida ta'limotning asosiy maslagi bo'lmish mehnat g'oyasiga da'vat ruhi sezilib turadi.

"Shayx Sa'non vosili dargoh edi,
Ko'ngli g'ayb asroridin ogoh edi". [1]

Parchada Navoiy Shayx Sa'nonning ko'ngli oddiy ommaga ma'lum bo'lmagan, faqat avliyolar va valiyalar xabardor bo'ladigan ilohiy sirlardan ogoh ekanligini yozadi. Bu esa uning komillik sifatlaridan darak beradi. Navoiydagi komillik tushunchasi davr talabiga ko'ra Attordan farq qilardi. Shoir naqshbandiya tariqatida bo'lgani bois, uning asarida ta'limotning asosiy maslagi bo'lmish mehnat g'oyasiga da'vat ruhi sezilib turadi. Uning ta'birida komil shaxs elga, xalqqa manfaat keltirishi lozim edi. Shu sababdan Navoiy o'z Shayxini boshqalarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, shogirdparvar yirik ulamo sifatida tasvirlaydi.

Metodologiya: Mazkur maqola Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida Shayx Sa'non obrazining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, unda bir nechta ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Birinchidan, qiyosiy-tipologik metod asosida Shayx Sa'non obrazi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridagi talqin bilan solishtirildi. Bu orqali obrazning tadrijiy rivoji va Navoiy tomonidan kiritilgan yangiliklar aniqlashtirildi. Ikkinchidan, germeneytik (talqin) metod yordamida asardagi ramzlar, tasavvufiy g'oyalar va ichki ma'nolar sharh qilindi. Ayniqsa, Shayx Sa'nonning ishqiy sinovi va uning ruhiy kechinmalari chuqur interpretatsiya qilindi. Uchinchidan, psixologik tahlil metodi orqali qahramonning ichki kechinmalari, e'tiqodiy inqirozi va ruhiy transformatsiyasi ochib berildi. Bu usul obrazning faqat tashqi emas, balki ichki dramatzimini ham ko'rsatishga xizmat qildi. Shuningdek, strukturaviy-badiiy tahlil metodi asosida obrazning asardagi funksiyasi, syujetdagi o'rni va badiiy vositalar tizimidagi roli o'rganildi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida Shayx Sa'non obrazi tasavvufiy tafakkurning yuksak badiiy namunasi sifatida yoritilgan bo'lib, unda insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi murakkab ichki kurashlari, ishq va e'tiqod sinovlari chuqur falsafiy mazmun bilan aks ettiriladi. Mazkur obraz orqali muallif zohiriy taqvo bilan botiniy haqiqat o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi hamda haqiqiy ishqning insonni komillikka yetaklovchi kuch ekanini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. Lison ut-tayr. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – 474 b.
2. Isomiddinov F. Shayx Sa'non haqidagi qissalarning qiyosiy tahlili (Fariddin Attor va Alisher Navoiy asarlari asosida): filol. fanlar nomz. ... diss. – Toshkent, 2001. – 138 b.
3. Karimova Yu.B. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida poetik tafakkur va uslub masalasi: monografiya. – Farg'ona, 2024. – 174 b.
4. Mallayev N., Akramov B., Sharipov Sh. Navoiyxonlik suhbatlari; Fasohat mulkinging sohibqironi; "Lison ut-tayr" haqiqati // Alisher Navoiy. 30 jildlik. Nashrga tayyorlovchilar: O. Davlatov, D. Yusupova; Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi. – Toshkent: Tamaddun, 2021. – 344 b.
5. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 183 b.
6. Attor F. Mantiq ut-tayr / nashrga tayyorlovchi O. Davlatov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 172 b.
7. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr: nasriy tabdil / so'zboshi, tabdil va izohlar mualliflari: Manzar Abdulxayr, Abduhamid Pardayev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 187 b.